# Ўзбекистон Республикасида диний соҳадаги давлат сиёсатининг мақсади, асосий вазифалари ва принциплари




11:34 / 03 февраль    888

**Ўзбекистон Республикасининг диний соҳадаги давлат сиёсати қуйидаги асосий принципларга таянади:**

• *Қонунийлик*

• *Виждон эркинлиги*

• *Диннинг давлатдан ажратилганлиги*

• *Тенглик*

• *Эркин фикрлаш*

• *Динлараро мулоқот ва ўзаро тушуниш*

Қонунийлик принципига мувофиқ диний соҳадаги давлат сиёсати Конституцияга ва қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилади.

Виждон эркинлиги принципига биноан Ўзбекистон Республикасида барча шахслар учун дин ва эътиқод эркинлиги кафолатланади.

Диннинг давлатдан ажратилганлиги принципи диний ташкилотлар ва давлат органлари ўзаро бир-бирининг фаолиятига аралашмаслиги, давлат

диний ташкилотлар зиммасига давлатнинг бирор-бир вазифаларини юкламаслиги, диний ташкилотларнинг давлат функцияларини амалга оширишига йўл қўймаслигига оид қоидаларни назарда тутади.

Тенглик принципига мувофиқ фуқаролар жинси, ирқи, миллати, тили, дини, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенг бўлиб, бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлади.

Эркин фикрлаш принципига кўра, фуқароларга бошқа шахслар, жамият ҳамда давлатнинг қонун билан белгиланган ҳуқуқлари, эркинликларига ва қонуний манфаатларига дахл қилмаган ҳолда ўз фикрини эркин билдириш, очиқ мулоқот ва ўзаро ҳурматга асосланган баҳс-мунозарага киришиш ҳуқуқи кафолатланади.

Динлараро мулоқот ва ўзаро тушуниш принципи асосида турли динларга эътиқод қиладиган ёки бирор-бир динга эътиқод қилмайдиган фуқаролар, турли конфессияларга оид ташкилотлар ўзаро диний бағрикенглик, муроса, ҳурмат ва тушуниш асосида мулоқот ўрнатади.

Манба: https://t.me/huquqiyaxborot